UO‘K:811.512.133’33:008

TIL QADRIYATLARNING INTEGRATSION TIZIMI SIFATIDA

F.F. Usmanov

Maqolada zamonaviy fanlarda obyektga integrativ yondashuvning ahamiyati, xususan, tilshunoslikda qadriyat muammosiga shunday yondashuvning zarurati asoslangan. Falsafa va lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qadriyat fenomenining talqinlari, uning jamiyatdagi vazifalari, tadqiq etish usullari o‘rganilgan. Shuningdek, qadriyat va konsept o‘rtasidagi mushtarak va farqli jihatlar ajratilgan, qadriyatlarni til birliklari orqali aniqlash istiqbollari belgilangan.

Kalit so‘zlar: *fan metodologiyasi, konsept, qadriyat, kognitiv maydon, ijtimoiy baho, aksiologiya.*

В статье обоснована важность интегративного подхода к объекту в современной науке, в частности, необходимость данного подхода к проблеме ценности в лингвистике. Изучены трактовки феномена ценности с точки зрения философии и лингвокультурологии, ее функции в обществе, методы исследования. Также выделены аспекты общности и различия между ценностью и концептом, обозначены перспективы определения ценностей через языковые единицы.

Ключевые слова: *методология науки, концепт, ценность, когнитивное поле, социальная оценка, аксиология.*

Kirish

Ma’lumki, falsafa va fan metodologiyasida ilmiy bilishning tarixiy bosqichlari sifatida klassik (XVII–XIX asr), noklassik (XIX asr oxiri–XX asrning 70–80-yillari) va postklassik (XX asr oxiri) davri ajratiladi [1].

Postklassik ratsionallik yoki epistemiologiyaning postklassik davri uchun zamin hozirlagan omillar sifatida so‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy bilishning nochiziq rivojlanish davriga kirishi, fan obyektlarining serqirra ekani va bir obyekt turli fanlar uchun qiziqish uyg‘otishi tabiiyligi, umuman, fanlarda ushbu obyektlarni o‘rganish metodologik integratsiyani talab etishining tan olinishi bilan bog‘liq refleksiya e’tirof etiladi.

Material va usullar

Ilmiy bilishning turli davrlari xilma-xil tendensiyalari bilan xarakterlanadi. Masalan, fanlarning differensiatsiyasi – ixtisoslashuvi o‘z davrida falsafadan mantiqning, mantiqdan tilshunoslikning ajralishiga olib kelgan. Bunday ajralishlar fan obyektini boshqa obyektlar ta’siridan ajratib, uni baholashni soddalashtiradi. Shu bilan birga differensiatsiyaning salbiy ta’siri ham borki, obyekt o‘z tadqiqotchisi tomonidan qo‘yilgan chegara sabab o‘zining to‘la ilmiy talqiniga ega bo‘la olmaydi.

Masalan, tilshunoslikda o‘tgan asrning 70-yillari “gap semantikasiga shturm” davri (N.Arutyunova) deb atalishi, ushbu davrda semantikaga oid izlanishlar juda ko‘paygani tilshunoslarga yaxshi ma’lum. Olimlar gap semantikasiga chuqur kirgani sari anglab yetadiki, gap mazmunini to‘g‘ri tushunish va talqin etish uchun sintaksis, semantikaning o‘zi yetarli emas. Pragmatik yondashuv, gap mazmuni talqinida nutq vaziyati, so‘zlovchilar shaxsi kabilarga e’tibor qaratilishi esa til doirasidan chiqishga olib keladi. Chunki mazmuni talqin etilishi kerak bo‘lgan gap doirasida ular bevosita aks etmaydi. Xuddi shu tarzda olimlarning turli organizmlar, ularning to‘qimalari va hujayralarini o‘rganishda chuqurlashib, ularda kimyoviy jarayonlarning ahamiyatini anglashi orqali biokimyo fani yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, fanlararo integratsiya obyektni to‘la ilmiy talqin etishning muhim shartiga aylanadi.

Natijalar va muhokama

Ilmiy ratsionallikning postklassik davri uchun xos bo‘lgan belgilar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

• fanlararo tadqiqotlarning ko‘payishi;

• ilmiy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalarining qo‘llanishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar;

• siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning fan taraqqiyotiga ta’sirining ortishi;

• fan obyektlariga murakkab o‘z-o‘zini tashkillovchi va rivojlantiruvchi sistema sifatida qarashning kuchayishi;

• tadqiqotlarda qadriyat aspektlarini hisobga olish;

• fanlarda metodologik “ochiqlik”, ya’ni metodologik erkinlik: tabiiy fanlarda gumanitar fanlar metodlarining qo‘llanishi.

Yuqoridagi belgilardan metodologik erkinlik obyekt tadqiqining rivojlanmagan bosqichlarida bir qadar tarqoqlikka olib kelishi mumkin. Zero, aniqlikka va qat’iy qoidalarga o‘rgangan tadqiqotchi ilmiy bilishda bunday “metodologik erkinlik”ka ko‘nikishi qiyin, ammo insonning kognitiv olami, umuman, kognitiv strukturalar talqini qat’iy qoidalarga solinishi, har holda, fan taraqqiyotining hozirgi davrida imkonsizdek. Shuningdek, obyektni o‘rganishda postklassik ilmiy ratsionallikdan foydalanish fanda “totalitarizm, standartlashtirish, qat’iy ratsionallik, aniq determinizmni yengib o‘tishga va kognitiv amaliyotlarning sintezini, turli nuqtai nazarlarning ko‘pligini tasdiqlashga imkon beradi” [2. B. 24].

So‘nggi o‘n yilliklarda tilshunoslik ilmida ham turli chorrahadagi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi o‘zining ratsional sabablariga ega. Ya’ni til yaralgan davridan boshlab unda sodir bo‘luvchi har qanday o‘zgarishning asosi uning egasida, demakki, hamisha tildan tashqarida [3. B. 65]. Inson hayoti esa, o‘z navbatida, boshqa jonivorlardan farqli ravishda bir vaqtning o‘zida tabiatda, jamiyatda va madaniyatda kechadi. “Tabiatda inson vital, tabiiy-organik, jamiyatda ijtimoiy hayot kechiradi. Madaniyatda, ma’naviy qadriyatlar dunyosida esa u ma’naviy hayotini kechiradi” [4. B. 83]. S.G.Vorkachev aytganidek, “Til, madaniyat va etnos bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy “men”i to‘qnashgan chegarani tashkil etadi” [5. B. 66]. Shunday qilib, lisoniy hodisalar madaniy hodisalar bilan, ya’ni uning egasi bo‘lgan lingvomadaniyatning qadriyatlari va boshqa xususiyatlari bilan o‘rganilishi o‘zining obyektiv tomonlariga ega: tilning o‘zi shunday xususiyatlar sintezidan iborat. Mazkur o‘rinda madaniyatga berilgan ta’riflarning aksariyati uning ma’lum jamoaning qadriyatlar olami ekanini bevosita yoki bilvosita ifoda etishini eslatish lozim. Har qanday jamiyat yoki jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatida amal qilinadigan me’yorlar qadriyatli me’yorlardir. Bunday qadriyatli me’yorlar shu jamiyat vakili bo‘lgan shaxs o‘zi va boshqalarning huquq va majburiyatlarini hisobga olgan holda munosabatlarga kirishgan ondayoq shakllanadi.

Masalan, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan kasb so‘zida salbiylikka moyillik yo‘qdek. Arab tilidan o‘zlashgan ushbu so‘zning ma’nolari 1 Ish-faoliyatning ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. 2 Umuman, odat qilingan ish; odat [6. B. 328] bo‘lib, turli kontekstlarda ushbu so‘zning ma’nosi salbiy tomonga o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin: ...aholi orasida imkon qadar davlatdan foydalanib, ishlamasdan pul olishga urinayotganlar ...shu ishni o‘ziga kasb qilib olganlar ham bor [7]; Firibgarlikni o‘ziga kasb qilib olgan shaxs qonun oldida javob beradi [8]; Fohishaxona saqlash jinoyatini o‘ziga kasb qilib olgan ayol tezkor tadbir davomida yana qo‘lga tushdi [9]. Keltirilgan jumlalarda “ishlamasdan pul olishga urinish”, “firibgarlik”, “fohishaxona saqlash” nazarda tutilgani salbiylikka sabab bo‘lgani to‘g‘ri, albatta. Ammo shunday kontekstlarda kasb so‘zini qo‘llashga imkon topgan til egasining milliy mentalligi ekani ham aniq. Shu kabi tipik vaziyatlar ko‘p ekanki, takrorlanishlar natijasida kasb so‘zining presuppozitiv imkoniyati kengayishiga, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga ham kasb qilmoq birikmasi kiritilishi va “biror ish-mashg‘ulotni odat qilmoq, doimiy ish-mashg‘ulotga aylantirmoq” tarzidagi izohlanishiga omil bo‘lgan. Aslida, dinimizda kasb qilish, mehnat qilib, rizq topish buyurilgan emasmi? Gap shundaki, dinimizda buyurilgani halol kasb qilmoqlik. Keltirilgan kontekstlarda esa kasb qilib olinganlar halol mashg‘ulot emasligiga ortiqcha izoh shart emas. Shunday qilib, “...lisoniy ong kognitiv tafakkur elementlariga muvofiq bo‘lgan, birinchi navbatda, ijtimoiy, madaniy va dunyoqarashga oid bilimlarni verballashtiradi. Natijada kognitiv tafakkur elementlarining lisoniy presuppozitsiyalarga transformatsiyalanishi ro‘y beradi” [10. B. 280]. “Bunda ular milliy aksiologik nigoh ta’sirida til semantikasining madaniy-pragmatik uzvlariga aylana boradi. Ushbu jarayonni keng ma’noda har bir millatning evristik faoliyati natijasining aks etish jarayoni sifatida qabul qilish mumkin” [10. B. 280].

Rus olimlari V.I.Karasik hamda I.A.Sternin tahriri ostidagi “Konseptlar antologiyasi” (“Антология концептов”)da mualliflar lingvomadaniy konseptlarning uch uzvli tabiati xususida so‘z yuritib, konseptlarning qadriyatli, obrazli (obrazli-perseptiv va obrazli-metaforik) va tushunchaviy (faktual) uzvlarini ajratadilar. Bunda qadriyatlilik (ценностность)ning ko‘rsatilganligi o‘ziga xos metodologik ahamiyatga ham ega. Zero, “Konseptning markazi har doim qadriyatdir, chunki konsept madaniyatni o‘rganishga xizmat qiladi va madaniyatning asosi aynan qadriyatlilik tamoyilidir. Qadriyatli munosabatlar mavjudligining ko‘rsatkichi baho predikatlarning qo‘llanilishida ko‘rinadi. Agar subyekt biror hodisa haqida “yaxshi” (yomon, qiziqarli, zerikarli va hokazo) deya olsa, ushbu hodisa shu madaniyatda konseptni shakllantiradi” [11. B. 14].

T.B.Radbil ko‘rinishidan oddiy bo‘lgan qadriyat kategoriyasi (nimaningdir yaxshi yoki yomon, ijobiy

yoki salbiy deya baholanishi) aslida eng murakkab masalalardan ekanini qayd etib, N.Arutyunovaning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratadi: "Baho so'zlovchi subyektga boshqa har qanday mazmundan ham ko'proq bog'liq... Insonning ichki olamida baho fikr va his-tuyg'ularga, istak va ehtiyojlarga, burch va maqsadlarga mos keladi... Baho ijtimoiy shartlangan. Uni talqin etish u yoki bu jamiyat yoki uning qismida qabul qilingan me'yorlarga bog'liq" [12. B. 228]. Ko'rinadiki, mualliflar bir tomondan, qadriyatlarda subyektivlik va ijtimoiylik aks etishini ko'rsatishsa, boshqa tomondan, qadriyatlarni aniqlash oson kechmasligini ta'kidlashadi.

Shuning uchun millat ongidagi olamning lisoniy manzarasini tushunish, shu madaniyatga qo'shila olish uchun yoki ta'lim jarayonlarida ushbu madaniyat matnlarini to'g'ri talqin etish, lingvomadaniy kompetensiyaga ega bo'lish uchun ushbu madaniyat qadriyatlarini o'rganmoq zarur. Qadriyatlarni bilish zamonaviy shaxsning o'zini o'zi qaysi madaniyat (yoki submadaniyat)ga tegishli ekanini identifikatsiya qilishi kuchaygan, xippi, pank, emo kabi madaniyat shakllari yuzaga kelgan, hatto jins nuqtayi nazaridan ham inson o'zini o'zi identifikatsiya qilishi kuzatilayotgan [13. B. 201] hozirgi davr uchun katta ahamiyatga ega.

N.A.Sergiyenkoning fikricha, qadriyatlar subyektiv-obyektiv xarakterga ega. Ular obyektiv va subyektiv, ma'naviy va moddiy, shaxsiy va umuminsoniy, ijtimoiy va tabiiy hodisalar umumiyligini aks ettiradi [4. B. 269]. Qadriyatlar ijtimoiy vazifa bajarib, shaxsning xatti-harakatlari, jamiyatdagi faoliyatini ijtimoiy ideallar, qiziqish va ehtiyojlari bilan bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Sharqda jamiyat a'zolarining kishining ma'lum bir xatti-harakatlariga nisbatan munosabati, uning faoliyatini tartibga soluvchi ta'siri kuchli darajada ekanini hisobga olsak, qadriyatlarning regulyativ vazifasi yaqqol ko'rinadi.

Jamiyat o'z a'zolari ijtimoiylashuv jarayonida ularning birgalikdagi faoliyatini me'yorlashtirish uchun axloqiy cheklovlar tizimini shakllantiradi. Bu tizim bir necha shakllarda mavjud. Ushbu axloqiy cheklovlar falsafiy qarashlar, ilmiy va publitsistik maqolalar shaklida rasmiylashadi, ular umumiy qabul qilingan va umume'tirof etilgan (muayyan jamiyatda) odamlarning birgalikdagi faoliyatini tartibga soluvchi sifatida jamoat ongida qadriyatlar haqida ideal tasavvurlarni yaratadi. Bu ijtimoiy axloqiy ideallar jamiyat har bir a'zosining mulkiga aylanib, ularning hayot faoliyati maqsadlari vazifasiga aylana boradi [4. B. 27].

Qadriyatlar dunyosi ma'lum bir tarixiy davrda, ma'lum bir ijtimoiy muhitda kishilarning faoliyati natijasida shakllanadi. Ushbu qadriyat va ularga muvofiq bo'lgan me'yorlar aniq anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ammo ular jamiyat a'zolari uchun umumiy va muhimdir. Ular o'zining ushbu yashirin, psixik tabiati o'laroq har bir lisoniy shaxsning mulki hamdir. Ko'rinadiki, "u yoki bu qadriyat har doim madaniy shartlangan, har bir madaniyat esa tarixan o'ziga xos ijtimoiy tuzilma bo'lib, mazkur jamoaga shaxsni integratsiya qilish vazifasini bajaruvchi spetsifik qadriyatlar sistemasi va iyerarxiyasi sifatida tavsiflanishi mumkin" [14. B. 35].

Lingvomadaniyatshunoslik doirasida qadriyatlarni o'rganish aksiologik dunyoqarashning tabiati, shu jumladan, qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning tuzilishi, jamiyatdagi ijtimoiy baholash, pog'onalash usullari, shuningdek, qadriyatlarning subyektivligi/obyektivligi, ularning tabiati haqidagi ilmiy qarashlarni hisobga olishni talab qiladi. Sanalgan omillarning sirasiga obyektiv va subyektiv qadriyatlar, ularning shakllanishiga tashqi omillarning ta'siri kabilarni ham qo'shish kerak bo'ladi. Qadriyatlarni emotsional bo'yoqli birliklar sifatida talqin etish ularning voqelanishini lisoniy emotivlik kategoriyasi nuqtayi nazaridan o'rganishga imkon beradi.

Bundan tashqari, aksiologik tamoyillarni lingvistik materialga qanday qo'llash mumkinligini o'rganish masalasi ham dolzarbdir. Masalan, yuqorida tilga olingan olima V.A.Maslovaning ishlarida lingvomadaniyatshunoslikka "triangulyatsiya" metodining tatbiqini ko'rish mumkin [18. B. 34–37].

Triangulyatsiya (ot lot. triangulum – uchburchak), umumiy tomonlari bilan bog'langan uchburchaklar zanjirini qurish orqali geodeziya obyektlari koordinatalarini aniqlash metodi hisoblanadi [15]. Bunda "agar biror obyekt joylashgan o'rin noma'lum, ammo uni koordinatalari ma'lum bo'lgan boshqa uchta nuqta bilan masofasini aniqlash imkoni bor bo'lsa, hisob-kitob yo'li bilan ushbu obyektning koordinatasini aniqlash mumkin"ligi nazarda tutiladi [18. B. 34]. Aniq va tabiiy fanlarda triangulyatsiya metodi muhim ahamiyat kasb etib, bir nechta metodlardan foydalanish hisobiga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarni kamaytirishga imkon beradi.

Lingvomadaniyatshunoslikda triangulyatsiya metodi muayyan lisoniy yoki madaniy hodisalarni tavsif yoki tahlil qilish uchun bir nechta manbalar va usullardan foydalaniladigan yondashuvdir. Bu usul tadqiqotchilarga turli manbalar yoki usullardan olingan ma'lumotlarni solishtirish orqali til hodisalari va madaniyat xususiyatlari haqida to'liqroq va aniqroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Demak, triangulyatsiya deganda, biror muammoning hal qilinishi yo'lida turli manbalar, yondashuv va nazariyalar asosida xulosaga kelish tushuniladi. "Triangulyatsiyaning boshqa yondashuvlardan, xususan,

kompleks yondashuvdan prinsipial farqi shundaki, triangulyatsiya doirasida a) barcha nazariyalar teng deb tan olinadi, b) har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari tan olinadi va baholanadi c) ma'lumotlar, tadqiqotchilarning ishlari, nazariya va metodlar bir butunga birlashtirilmaydi, bir-biridan mustaqil ravishda mavjud bo‘ladi; d) lingvistik ma'lumotlarni tekshirish uchun unga aloqador bo‘lgan boshqa fanlardan ma'lumotlar, metodlar, yondashuv va nazariyalardan foydalanish mumkin" [18. B. 35].

Lisoniy ongda qadriyatlar olami shakliy va interpretatsion uzvlarga ajratilishi mumkin. Birinchisi bevosita ifodalangan mazmun, ikkinchisi, uning keng talqinini anglatadi. Shu o‘rinda interpretatsion uzv ko‘plab matnlar (keng ma'noda)dan yuzaga keluvchi madaniy mazmun ta'sirida qolishini ta'kidlash kerak. Boshqacha aytganda, bunda til jamoasining stereotiplari asosidagi bahosi muhim. "Muloqot jarayonida borliqning u yoki bu unsuriga nisbatan baho predikatlarining qo‘llanishi ushbu madaniyatda shu unsur asosidagi konsept mavjudligining ko‘rsatkichi deb hisoblanishi mumkin" [16. B. 181]. Keltirilgan ta'rifdan konsept va qadriyatni farqlash imkoni bo‘lmay qoladi. Darhaqiqat, ular o‘zaro yaqin, konsept qadriyatsiz bo‘lmaydi, qadriyatlar xususida so‘z yuritish konsept haqida gapirish bilan barobar. Masalan, "tinchlik" yoki "vatan" kabilarni konsept ham, qadriyat ham hisoblash mumkin. Mazkur masalaga e'tibor qaratgan mualliflar quyidagicha, bizning nazarimizda, asosli xulosaga kelishadi: "Har bir qadriyat amalda konsept bo‘la oladi, lekin har bir konsept qadriyat bo‘la olmaydi. Masalan: muhabbat, do‘stlik, ozodlik, mehnatkashlik – bir vaqtning o‘zida ham qadriyat, ham konseptlar, lekin urush, o‘lim, falokat, qayg‘u kabi konseptlar hech qachon qadriyat bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham... Shuningdek, konseptlar doirasi qadriyatlarnikidan ancha keng, qadriyatlar miqdori unday emas, binobarin, bu xususiyat qadriyatlar mavjudligining shartlaridan biri hamdir" [17. B. 6]. Demak, konseptning qamrovi qadriyatga nisbatan keng, ular mazmuni va jamiyatdagi maqsadi bilan farq qiladi.

Madaniy konseptlar bu madaniy ahamiyatli ma'nolar, milliy madaniyatning asosiy g‘oya va qarashlaridir... Ularning mazmun-mundarijasi davrlar aro rivojlanishi, boyishi mumkin, ammo ularning asosida o‘zgarmas nimadir mavjud bo‘ladi... Ular milliy til shakllarida ifoda topgan, til, madaniyat va milliy lisoniy ongni birlashtirish qudratiga ega milliy o‘z-o‘zini anglashning "tayanch nuqtasi"dir. "Shu sababli ularni mental konsept, (N.D.Arutyunova), ma'naviy konsept, "ekzistensial nomlar" (Y.D.Apresyan), milliy madaniyatning asosiy simvollari deb atash mumkin. Ba'zan ularning semantikasidagi qadriyat uzviga urg‘u berish maqsadida ular "emotsional-intellektual baho" birliklari – "aksiologema" deb ham ataladi [12. B. 230].

Aksariyat olimlarning fikrlarida qadriyat-konseptga konseptual maydon sifatidagi yondashuvni ko‘rish mumkin. A.A.Lavitskiy va Ye.Yu.Muratovalarning fikricha ham "qadriyatlar – dinamik tuzilma; ular noaniq chegaralarga ega: goh kengayib, goh o‘zaro aralashadi, yoki, aksincha, qismlarga ajraladi. Shunga muvofiq butun maydon o‘zgarishga uchraydi". Ular maydonni shunday tasvirlaydilar: "1) markazda qadriyatning o‘zi, ya'ni konseptning nomi, uning sinonimlari, shu jumladan, kontekstual sinonimlari ham joylashadi. Konseptning madaniy-lisoniy o‘ziga xosligiga qadriyatli yondashuvda, birinchi navbatda, jamiyatning qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy markerlangan belgilar, tafakkur va xulq-atvor stereotiplari tadqiq predmetiga aylanadi... 2) yaqin periferiya – qadriyat haqida faktual ma'lumotlar – uning turli mavjudlik shakllarini qayd etuvchi qatlam (mualliflar uni "информационно-понятийный слой" deb ataydilar); 3) uzoq periferiya ikki "qatlam"dan iborat: birinchisi – obrazli (poetik) ifoda, ikkinchisi – mazmuni yaqqol bo‘lmagan, talqinni talab etuvchi intepretatsion qatlam [18. B. 118–119].

Qadriyatlar, butun jamiyat yoki yakka shaxs ongida bo‘lishidan qat'i nazar, voqelanishi – obyektivlashtirilishi zarur. Shunda ularni kuzatish va tushunish mumkin bo‘ladi. Agar qadriyatlar odamlar xulq-atvorining axloqiy regulyatori bo‘lsa, u holda muloqot qilish uchun tilni bilishdan tashqari, axloqiy xatti-harakatlar qoidalarini bilish ham zarurligi ayon bo‘ladi. Ularsiz to‘laqonli muloqot amalga oshishi mumkin emas.

O‘zbek madaniyatidagi qadriyatlar o‘zbek jamiyati a'zolarining birgalikdagi faoliyatining ijtimoiy regulyatorlari sifatida lingvokulturologiyaning tahlil obyekti hisoblanadi, chunki ular o‘zining belgi qobig‘i – verbal voqelanishiga ega. Tilshunoslik esa, bizning fikrimizcha, belgilik xarakteriga ega har qanday obyektni o‘rganishga haqlidir.

Jamiyat a'zolarining birgalikdagi faoliyati muloqotni talab qiladi, bunda kommunikantlar qadriyat me'yorlariga amal qiladilar, bu axloqiy ko‘rsatmalarni bilmay turib, tilni muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish butun mohiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun har qanday tilni chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalar uchun uning madaniyati, qadriyatlarini bilish ham majburiy talabga aylanadi.

Qadriyatlar, jamiyat a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tartibga solish vositasi sifatida lisoniy ongning bir qismidir va shuning uchun ularga faqat verbal belgilar voqelanishi orqali tahlil qilish mumkin bo‘lgan lisoniy ongni o‘rganishda foydalaniladigan tadqiqot usullari qo‘llaniladi [4. B. 27].

Demak, qadriyatlar o‘zining verbal yoki noverbal semiotik voqelanishlari orqali tahlil etilishi mumkin. Bitta qadriyatning bir necha obyektivlashuvini tahlil qilish ushbu qadriyat haqida bir nechta tasavvurlarning shakllanishiga olib keladi. Ular qarama-qarshi emas, bir obyektning turli tomonlarini ochib beradigan tushunchalar ekanini hisobga olish darkor. Chunki bunda obyektning o‘zi murakkab sistemaviy tabiatga ega. Bunda aksiologik ong masalasi muhim hisoblanadi.

Aksiologik ong – bu inson ongining jamiyatdagi boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lish bo‘yicha qoidalar va cheklovlar to‘plamini o‘z ichiga olgan bir qismi. Bu bizning o‘zaro munosabatlarda nimalarni ahamiyatli va qadrli deb bilishimizga bog‘liq. Bunday qoidalar axloqiy bo‘lishi, ya’ni biz nimalarni axloqiy jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb hisoblashimiz bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. V.P.Sinyachkin aksiologik ongning turli darajalari mavjudligini ta’kidlab, ular ijtimoiy ong darajasini, oddiy ong darajasini va uning obyektivlashuvi, ya’ni voqelanishini farqlash maqsadga muvofiq hisoblaydi [19. B. 31]. Demak, “lisoniy aksiologik ong” deganda tilda voqelangan qadriyatli manzara va me’yorlar tushuniladi.

Qadriyatlar (aksiologik ong) belgilar shaklida mavjud bo‘lib, u hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan obyektning mavjudligini nazarda tutadi, u belgining moddiy qobig‘i (belgini obyektivlashtirish vositasi) va mental tuzilmaning mavjudligini taqozo etadi. Bu ongdagi tushuncha va tasavvurlar uchun moddiy qobiq zarur ekanini anglatadi. Moddiy qobiqqa ega bo‘lishlik, o‘z navbatida, insonning tafakkuriga xos bo‘lgan yana bir xususiyat – qiyoslash-o‘xshatish (mazkur o‘rinda aniqrog‘i – metonimiya) amaliyoti tufayli qadriyat sifatida biror moddiy obyektning tushunilishiga olib keladi. Shu amaliyot hosilasi o‘laroq inson qadriyati sifatida milliy libos, qadimgi osori-atiqa-yu, obidalar tilga olinadi. Aslida, qadriyat biror moddiy narsa emas, ideal hodisadir. Qadriyat va baho juda ham yaqin munosabatdagi tushunchalar bo‘lib, “qadriyat baho subyekti va baholash jarayonisiz mavjud bo‘lmaydi” [20. B. 13]. Masalan, insonning hayotida ijobiy baholanadigan obyekt qadriyat sifatida tushunilishi mumkin. Shu sababdan ko‘pincha qadriyatli mazmunni tashuvchi ushbu obyektning o‘zi qadriyat deb ataladi [21. B. 137]. Bunday holat shakl va mazmun dialektikasini namoyon etadi, bunda predmet shakl bo‘lib, mazmunga – qadriyatni ifoda etishga turli shakllar xizmat qiladi. Demak, ma’lum bir obyekt (keng ma’noda) emas, shu obyekt o‘zida saqlagan mazmunga bo‘lgan munosabat qadriyat hisoblanadi [22. B. 100].

O‘zbek tili aksiologik leksikasining semantik-stilistik xususiyatlarini tadqiq qilgan Sh.Xudaykulova aksiologik tilshunoslikni tildagi qadriyatlarni o‘rganuvchi soha hisoblaydi va “aksiologik tadqiqot maqsadiga ko‘ra, til hodisalarining tahlil materiali qadriyatlarni shakllantirish, ifodalash, namoyish qilish vositasi hisoblanmish tildir” [23. B. 21] degan xulosaga keladi.

Xulosa

Xullas, qadriyatlarning turli talqinlari mavjud bo‘lib, bizni ko‘proq madaniyatshunoslik fanidagi qadriyatlar talqini qiziqtiradi. Ushbu fan doirasida qadriyatlar inson faoliyatining mahsuli hisoblanib, madaniyatning o‘zi shu jamiyatdagi qadriyatlarning yig‘indisi sifatida tushuniladi. Madaniy qadriyatlar jamiyatning o‘zi tomonidan yaratiladi, ammo ular keyinchalik shu jamiyatning rivojlanishini belgilaydi, jamiyatning hayoti tobora ko‘proq u tomonidan yaratilgan qadriyatlarga bog‘liq bo‘la boshlaydi [23. B. 40]. Madaniyatga madaniy meros bo‘lib qoluvchi ixtirolar, artefaktlar, axloqiy va estetik tasavvurlar, urf-odat va qadriyatlar yig‘indisi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Bunda jamoa, millat kashf etgan mahsulotlardan eng muhimi tildir.

Adabiyotlar:

1. *Лебедев С.А*. Классическая, неклассическая и постнеклассическая методология науки // Гуманитарный вестник, 2019. 2 (76). – С. 1–15. [Электронный ресурс]. URL: http://dx.doi.org/10.18698/2306-8477-2019-2-596 (Дата обращения: 04.01.2024)

2. *Тиханкина С.А.* Постнеклассический тип научной рациональности: Дисс… канд.филол.наук. – Вологда, 2006. – 136 с.

3. *Маҳмудов Н*. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 320 б.

4. *Сергиенко Н.А*. Лингвоментальная антропосфера как фактор категоризации лингвокультур: Дисс... док. филол. наук. – Москва, 2023. – 417 с.

5. *Воркачев С.Г.* Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. – № 1. – С. 64–72.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. / А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2020. – 671.

7. “Шу ишни ўзига касб қилиб олганлар ҳам бор” – Бандихон ҳокими боқимандалик ҳақида. [Internet manba]. URL: https://daryo.uz/k/2023/12/08/shu-ishni-oziga-kasb-qilib-olganlar-ham-bor-bandixon-hokimi-boqimandalik-haqida (Murojaat etilgan сана: 03.01.2024)

8. Фирибгарликни ўзига касб қилиб олган шахс қонун олдида жавоб беради [Internet manba]. URL: https://bviib.uz/uz/news/firibgarlikni-oziga-kasb-qilib-olgan-shaxs-qonun-oldida-javob-beradi (Murojaat etilgan сана: 03.01.2024)

9. Фоҳишахона сақлаш жиноятини ўзига касб қилиб олган аёл тезкор тадбир давомида яна қўлга тушди. [Internet manba]. URL: https://aniq.uz/yangiliklar/fohishaxona-saqlash-jinoyatini-uziga-kasb-qilib-olgan-ayol-tezkor-tadbir-davomida-yana-qulga-tushdi (Murojaat etilgan сана: 10.01.2024)

10. *Алефиренко Н.Ф.* Современные проблемы науки о языке. – Москва: Флинта, Наука, 2005. – 416 с.

11. Антология концептов. / Под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернина. Том 1. – Волгоград: Парадигма, 2005. – 352 с.

12. *Радбиль Т.Б*. Основы изучения языкового менталитета. – Москва: Флинта: Наука, 2010. – С. 228. – 328 с.

13. *Ощепкова Е.Ш. Синячкин В.П.* Роль ценностей в формировании идентичности // Вестник Челябинского государственного педагогического университета, 2013. – № 2. – С.199-206.

14. Бабаянц В.В. Ценности как объект лингвокультурологической рефлексии // Филологические науки. Вопросы теории и практики (входит в перечень ВАК). Тамбов: Грамота, 2013. № 6. Ч. 1. – С. 32-35.

15. Большая российская энциклопедия 2004-2017 [Электронный ресурс]. URL: https://old.bigenc.ru/physics/text/4201650?ysclid=lseui73u4z1217 22504 (Дата обращения: 05.12.2023)

16. *Арутюнова Н.Д*. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 911 с.

17. *Ремизова В.Ф., Костина Н.Г*. Концепт VS ценность // Материалы Всероссийской научно-методической конференции. Оренбургский государственный университет. 2017 [Электронный ресурс]. URL: http://elib.osu.ru/handle/123456789/5555 (Дата обращения: 05.01.2024)

18. Славянские ценности в коммуникативном пространстве регионов. / Под ред. В.А.Масловой, М.В.Пименовой. – Минск: УП «Энциклопедикс», 2017. – 268 с.

19. *Синячкин В.П*. Общечеловеческие ценности в русской культуре: лингвокультурологический анализ: Дисс… док. филол. наук. – Москва, 2011. – 617 с.

20. *Баева Л.В*. Ценностные основания индивидуального бытия: опыт экзистенциальной аксиологии: Монография. – Москва: Прометей. МПГУ, 2003. –240 с.

21. *Солонин Ю.Н., Каган М.С.* Культурология: Учебник. – Москва: Высшее образование, 2007. – 566 с.

22. *Усманов Ф*. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.

23. *Худайкулова Ш.С*. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 48 б.

LANGUAGE AS AN INTEGRATED SYSTEM OF VALUES

Farkhad F. Usmanov

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 1(77). 50-57.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: methodology of science, concept, value, cognitive field, social assessment, axiology.

In the methodology of the philosophy of science, the historical stages of scientific knowledge are divided into classical (XVII-XIX centuries), non-classical (late 19th century - 70-80s of the XX century) and postclassical (late 20th century) periods.

As factors that prepared the postclassical era of postclassical rationality or epistemology, the entry into a period of nonlinear development of scientific knowledge in recent decades, the diversity of scientific objects and the naturalness of one object, which are of interest to different disciplines, in general, the study of these objects in the sciences is of a methodological nature, reflection is recognized as recognition of the need for integration.

Different periods of scientific knowledge are characterized by different trends. For example, the differentiation and specialization of sciences led to the branching of logic from philosophy and linguistics from logic. Such divisions separate the object of science from the influence of other objects and simplify its study. At the same time, there is also a negative effect of differentiation, which consists in the fact that the object cannot have a full scientific interpretation due to the limitation set by its researcher.

Therefore, the article emphasizes the importance of an integrative approach to an object in modern science, in particular, the need for such an approach to the problem of value in linguistics.

It is substantiated that linguoculturology studies language as a reflection of culture, then linguoculturological studies should be able to give certain conclusions about the culture to which this language belongs, about the values of this culture. Culture is the result of human activity (society) and is a set of norms and values that unite people into one group.

The complexity and uniqueness of the matter lies in the fact that the phenomenon of culture can be an object of interest in a number of disciplines, such as philosophy, cultural studies, history, ethnography, and sociology.

There are different interpretations of values, and we are more interested in the interpretation of values in the science of cultural studies. Within this discipline, values are viewed as a product of human activity, and culture itself is understood as the sum of values in this society. Cultural values are created by society itself, but they further determine the development of this society; the life of society begins to depend more and more on the values it creates.

References:

1. Lebedev, S.A. (2019) Klassicheskaya, neklassicheskaya i postneklassicheskaya metodologiya nauki [Classical, non-classical and post-non-classical methodology of science]. *Gumanitarnyj vestnik*. 2 (76). Pp. 1-15. [Online]. URL: http://dx.doi.org/10.18698/2306-8477-2019-2-596 (Date of Access: 04.01.2024)

2. Tihankina, S.A. (2006) Postneklassicheskij tip nauchnoj racional'nosti [Post-non-classical type of scientific rationality]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Vologda.

3. Mahmudov, N. (2017) Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... [Searching for ways to perfect the study of the language]. In: *Til tilsimi tadqiqi* [Linguistic studies]. Tashkent: Mumtoz so'z.

4. Sergienko, N.A. (2023) Lingvomental'naya antroposfera kak faktor kategorizacii lingvokul'tur [Linguistic anthroposphere as a factor in the categorization of linguistic cultures]. The dissertation for Doctor of Philological Sciences. Moscow.

5. Vorkachev, S.G. (2001) Lingvokul'turologiya, yazykovaya lichnost', koncept: stanovlenie antropocentricheskoj paradigmy v yazykoznanii [Linguoculturology, linguistic personality, concept: the formation of an anthropocentric paradigm in linguistics]. *Filologicheskie nauki*. No 1. Pp. 64-72.

6. Madvaliev, A. (ed.) (2020) *O'zbek tilining izohli lug'ati* [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: "O'zbekiston NMIU.

7. (2023) “Shu ishni o‘ziga kasb qilib olganlar ham bor” – Bandixon hokimi boqimandalik haqida [“There are those who have taken this job as a profession” - Hokim of Bandikhon about the Bakumand people]. [Online]. URL: https://daryo.uz/k/2023/12/08/shu-ishni-oziga-kasb-qilib-olganlar-ham-bor-bandixon-hokimi-boqimandalik-haqida (Date of Access: 03.02.2024)

8. (2023) Firibgarlikni o‘ziga kasb qilib olgan shaxs qonun oldida javob beradi [A person who commits fraud is liable to the law]. [Online]. URL: https://bviib.uz/uz/news/firibgarlikni-oziga-kasb-qilib-olgan-shaxs-qonun-oldida-javob-beradi (Date of Access: 03.01.2024)

9. (2023) Fohishaxona saqlash jinoyatini o‘ziga kasb qilib olgan ayol tezkor tadbir davomida yana qo‘lga tushdi (A woman who committed the crime of keeping a brothel was caught again during a quick operation). [Online]. URL: https://aniq.uz/yangiliklar/fohishaxona-saqlash-jinoyatini-uziga-kasb-qilib-olgan-ayol-tezkor-tadbir-davomida-yana-qulga-tushdi (Date of access: 10.01.2024)

10. Alefirenko, N.F. (2005) *Sovremennye problemy nauki o yazyke* [Contemporary problems in the science of language]. Moscow: Flinta: Nauka.

11. Karasika, V.I. Sternina, I.A. (ed.) (2005) *Antologiya konceptov* [Anthology of concepts]. Vol. 1. Volgograd: Paradigma.

12. Radbil’, T.B. (2010) *Osnovy izucheniya yazykovogo mentaliteta* [Basics of studying language mentality]. Moscow: Flinta: Nauka.

13. Oshchepkova, E.Sh., Sinyachkin, V.P. (2013) Rol’ cennostej v formirovanii identichnosti [The role of sensibilities in the formation of identity]. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta*. No 2. Pp. 199-206.

14. Babayanc, V.V. (2013) Cennosti kak ob”ekt lingvokul’turologicheskoj refleksii [Values as an object of linguocultural reflection]. *Filologicheskie nauki.* Voprosy teorii i praktiki (vhodit v perechen’ VAK). [Questions of theory and practice. Tambov: Gramota. No 6 (24): In 2 parts. Part 1. Pp. 32-35.

15. Bol’shaya rossijskaya enciklopediya 2004-2017 [Big Russian Encyclopedia 2004-2017]. [Online]. URL: https://old.bigenc.ru/physics/text/ 4201650?ysclid=lseui73u4z1217 22504 (Date of access: 05.12.2023)

16. Arutyunova, N.D. (1999) *Yazyk i mir cheloveka* [Language and the human world]. Moscow: Yazyki russkoj kul’tury.

17. Remizova, V.F., Kostina, N.G. (2017) Koncept VS cennost’ [Concept vs value]. Materialy Vserossijskoj nauchno-metodicheskoj konferencii. Orenburgskij gosudarstvennyj universitet [Materials of the All-Russian Scientific and Methodological Conference]. [Online]. URL: http://elib.osu.ru/handle/123456789/5555 (Date of access: 05.01.2024)

18. Maslova, V.A., Pimenova, M.V. (ed.) (2017) *Slavyanskie cennosti v kommunikativnom prostranstve regionov* [Slavic values in the communicative space of regions]. Minsk: UP «Enciklopediks».

19. Sinyachkin, V.P. (2011) Obshchechelovecheskie cennosti v russkoj kul’ture: lingvokul’turologicheskij analiz [Universal human values in Russian culture: linguocultural analysis]. The dissertation for Doctor of Philological Sciences. Moscow.

20. Baeva, L.V. (2003) *Cennostnye osnovaniya individual’nogo bytiya: opyt ekzistencial’noj aksiologii* [The value foundations of individual existence: the experience of existential axiology]. Moscow: Prometej. MPGU.

21. Solonin, Yu.N., Kagan, M.S. (2007) *Kul’turologiya* [Culturology]. Moscow: Vysshee obrazovanie.

22. Usmanov, F. (2020) O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi [Linguistic study of similes in the Uzbek language]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Tashkent.

23. Hudajkulova, Sh.S. (2022) O‘zbek tili aksiologik leksikasining semantik-stilistik xususiyatlari [Semantic-stylistic features of the axiological lexicon of the Uzbek language]. Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Tashkent.

Muallif haqida ma’lumot:

USMANOV Farxod Faxriddinovich – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: ufarhod001@mail.ru